

MAXSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI №46160

Ushbu shartnoma «Buyurtmachi» deb ataluvchi Beshariq tumani **Obodonlashtirish boshqarmasi** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i N. Nasipov bir tomondan va «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi **WORLD MARKET BESHARIQ 1995** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari J.Nuriddinov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

I. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. «Yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning talablaridan kelib chiqib, «**Fargona viloyati Beshariq tumani Gambay, Qorabo'yin, Quyi Zarqaynar, Saylabi MFYlarga 4 dona AD AZIYA tipidagi suv nasosi 1 donasi - 3990000 so'mdan yetkazib beradi.**

II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan maxsulotlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda)ga asosan joriy narxlarda shartnomaning umumiy narxi **15 960 000 (O'n besh million to'qqiz yuz oltmish ming)** QQSli so'mni tashkil etadi.

2.2. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 15 bank ish kunida «Buyurtmachi» yetkazib beriladigan asosiy vositalar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan ya'ni, avans tariqasida «yetkazib beruvchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Asosiy vositalar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, «yetkazib beruvchi» tomonidan topshirilgan xisob-varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Yetkazib beruvchi»ning majburiyatlari

SHartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib beriladigan asosiy vositalar «Buyurtmachi»dan xisob-varaq fakturaga asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan to'lovlar jadvaliga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida asosiy vositalarni yetkazib beradi.

Barcha ishlarni buyurtmachi talablariga muvofik, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va 30 kun muddatda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Yetkazib beruvchi»ning huquqlari

Maxsulot uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Maxsulotni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha maxsulotlarni qabul qilib olish;

Sotib olingan maxsulotlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Yetkazib beruvchi»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Yetkazib beruvchi»dan shartnomada kursatilgan maxsulotlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida sifatini kurib olish;

«Yetkazib beruvchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulotni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Yetkazib beruvchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «Yetkazib beruvchi» jarima to'laydi.

4.4. Yetkazib berilgan maxsulotlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, hududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yil joriy moliya yili doirasida amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

VIII.KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

Tomonlar:

8.1.Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

8.2.Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti harakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.3.Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

IX. TOMONLARNING REKVIZITLARI

“Yetkazib beruvchi”

WORLD MARKET BESHARIQ 1995

Beshariq tumani Oltin Vodiy ko'chasi
x/r 20208000505561914001
INN 309814790 MFO 01128
OKOD
"INVEST FINANCE BANK" ATB

“Buyurtmachi”


Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi

Beshariq shahri Oltin Vodiy ko'chasi
№114 uy
x/r 100022860302157062902110002
INN 206994051 MFO 00014
OKOD 70210
Markaziy bank Toshkent XKKMM



Raxbar: J.Nuriddinov

Raxbar: N. Nasipov

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH
	Imzolangan sana	5 OKT 2022 08:58
	Hujjat kodi	GU8275330244
	Hulosa kodi	XH7525401546



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO‘LIMI
YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin vodi y ko'chasi, 46-uy
Tel.:(998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

04.10.2022 yil

Beshariq tuman
Obodonlashtirish boshqarmasi

XULOSA

*(Obodonlashtirish boshqarmasining
shartnoma loyihasiga)*

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: “Mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida”gi shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 29 sentyabr kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo‘yicha taklif: Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda «**WORLD MARKET BESHARIQ 1995**» MCHJ o‘rtasida “Fargona viloyati Beshariq tumani Gambay, Qorabo‘yin, Quyi Zarqaynar, Saylabi MFYlarga 4 dona AD AZIYA tipidagi suv nasosi 1 donasi - 3990000 so‘mdan yetkazib berish to‘g‘risidagi 15 960 000 (O‘n besh million to‘qqiz yuz oltmish ming) so‘mlik shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyayining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi (Xo‘jalik shartnomasiga nisbatan qo‘yiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida Respublika Tovar hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshqarmaning shaxsiy kabineti orqali № 152517-lot raqami bilan e‘lon jo‘ylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 29 sentyabr kuni tanlov komissiyasining yigilish bayoni, № 152517-lot

raqamli e'lon bo'yicha takliflar, bajaruvchilarning tadbirkorlik Guvohnoma-litsensiyasi, Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 23-iyuldagi 130-11-153-F/22-sonli qarori ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining "Mahsulot yetkazib berish to'g'risida"gi shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Abdurafiqov

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Бешарик тумани
Ободонлаштириш бошкармаси
бошлиғи

(комиссия раиси)


Н.Насипов

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига кўра Бешарик тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан “Фаргона вилояти Бешарик тумани Gambay, Qorabo’yin, Quyi Zarqaynar, Saylabi MFYlarga 4 dona AD AZIYA tipidagi suv nasosi буйича 22110012142517-сонли лот юзасидан танлов комиссиясининг муҳокама натижалари тугрисида

36 -СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил 05 октябрь соат 09:27

Бешарик шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

Комиссия раиси:	Раҳбар	Н. Насипов
Комиссия котиби:	Бош ҳисобчи	Б. Пирназаров
Комиссия аъзоси:	Техника хавфсизлиги муҳандиси	Х. Дадабоев
Комиссия аъзоси:	Йул техниги	А. Пулатов
Комиссия аъзоси:	Омбор мудир	Д. Фаттоев
Комиссия аъзоси:	Булим бошлиғи	Л. Юсуфжонов

Йигилиш кун тартибидаги масала:

“Фаргона вилояти Бешарик тумани Gambay, Qorabo’yin, Quyi Zarqaynar, Saylabi MFYlarga 4 dona AD AZIYA tipidagi suv nasosi буйича УзРТСБ Etender.uzex.uz порталида 20-09-2022й 08:49 дан 27-09-2022й 08:49 гача бўлган вақтда жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар:

1. SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ
2. WORLD MARKET BESHARIQ 1995

27.09.2022й 09:15 да танлов комиссияси аъзолари томонидан WORLD MARKET BESHARIQ 1995 ғолиб деб топилди ва бу ҳақда электрон баённома расмийлаштирилди ҳамда шу вақтда 2 иш кунига муҳокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш кунни давомида ҳеч

қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори буйича голиб билан шартнома тузишга қарор қилинди.

Комиссия раиси:




Н. Насипов

Комиссия аъзоси:



Х. Дадабоев

Комиссия аъзоси:



А. Пулатов

Комиссия аъзоси:



Д. Фаттоев

Комиссия аъзоси:



Л. Юсуфжонов